



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024 - yil 12 - fevral

VI-86-15-10-0-K/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati Nurafshon shahrida kichik sanoat zonasi tashkil etish to‘g‘risida

Hududlarda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat maydonlarini tashkil qilish va ularda tadbirkorlarning to‘liq va uzluksiz faoliyat olib borishini ta‘minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik sanoat zonolari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-iyundagi 4363-sonli qarori asosida kichik sanoat zonolari faqatgina transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud yoki o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat yuritmayotgan korxonalar negizida va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer maydonlarida Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari qarorlari asosida tashkil qilinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-oktabdagi 331-sonli qarorining 3-ilovasi bilan

tasdiqlangan 2024-2026-yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish va xorijiy brendlar bilan hamkorlik o'rnatish dasturining 11-bandida charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish yuzasidan Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining qarorini qabul qilish choralarini ko'rish topshirig'i berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 9-martdagi 134-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 198-sonli farmoniga asosan, Nurafshon shahri hokimligining Rossiya Federatsiyasi "Ximgrad" texnopolis korxonasi bo'yicha 2023-yil 30-noyabrdagi 1/1-376-sonli xati, taqdim etilgan hujjatlari ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin;

Toshkent viloyati hokimligining 2019-yil 17-apreldagi 290-sonli qaroriga asosan Rossiya Federatsiyasining "Ximgrad" texnopolis korxonasiga ajratilgan Nurafshon shahri, Dehqonobod mahallasi hududidagi 100,0 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarida negizida KSZ tashkil etish bo'yicha takliflari ma'qullansin;

tashkil etilayotgan kichik sanoat zonasi hududidagi yer maydonlarini elektron onlayn-auksion orqali sotishdan tushadigan pul mablag'larini yagona direksiyaga qarashli zonalarda belgilangan tartibda infratuzilma yaratish, ularning bosh rejalarini ishlab chiqish va xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilsin;

Investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi rozilik xati olinishi inobatga olinsin.

3. Tashkil etilayotgan kichik sanoat zonasi hududida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortish tegishliligi bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosari B.Meliyev "Toshkent hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgaz Toshkent" MChJ, "Toshkent suv ta'minoti" MChJ, Viloyat avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi bilan birga:

dasturlar doirasida amalga oshiriladigan tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurilishini o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan tizimli nazorat o'rnatish;

viloyatdagi maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalari, yangi tashkil qilinadigan kichik sanoat zonalarini

tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tadbirlarining manzilli dasturlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan har oy yakunlari bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritib borsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent viloyati Ohangaron tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 11-yanvardagi 10-sonli qarori asosida Ohangaron tumani, "Ubayd" MFY hududida 15,7 gektar yer maydonlarida charm-poyafzal mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonasi tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov, viloyat hokimi o'rinbosarlari Najmiddinxodja Sharipov, Shukrullo Maxmudovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev